



## DORIVOR NA'MATAK TO'G'RISIDA MA'LUMOT VA NA'MATANING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

*Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li*

*Rustamova Gulnoza Yusuffjonovna*

*Ismatullayeva Malika Yoqibjon qizi*

*Inomjonov Shuxratbek Nematjonovich*

[nazirjonovi@mail.ru](mailto:nazirjonovi@mail.ru)

[gulnozarustamova168@gmail.com](mailto:gulnozarustamova168@gmail.com)

[malikaismatullaeva799@gmail.com](mailto:malikaismatullaeva799@gmail.com)

[shuhratinomjonov7@gmail.com](mailto:shuhratinomjonov7@gmail.com)

*O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti*

*Andijon filiali ilmiy xodimlari*

**Annotatsiya:** Maqolada dorivor namatak o'simligi xaqida ma'luotlar xamda Respublikamizda sharoitida qo'llanilayotgan dorivorlik xususiyatlari to'g'risida so'zlangan.

**Kalit so'zlar:** namatak, dorivor, shakar, ko'chat, agrotexnik talablar, rivojlanish, urug'

**Annotation:** The article provides information about the medicinal plant felta and its medicinal properties used in the conditions of our republic.

**Keywords:** felt, medical, sugar, seedlings, agrotechnical requirements, development, seeds

Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turlari borligi aniqlangan. Shundan 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Odamlar qadimdan dorivor o'simliklardan foydalanib kelgan. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy,

Qadimgi Misr mamlakatlarida dorivor o'simliklar haqida kitoblar yozilgan. O'rta Osiyo xalq tabobati bu boradi yetakchi hisoblanib bu haqida bizning Buyuk allomamiz Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari (Kitob al-Qonun fit tib)" asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar aniq va ravshan tarzda ko'rsatilgan. Dorivor o'simliklarning deyarli barcha qismidan xususan: quritilgan poyasi, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tiganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (urug'i), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan ko'plab dori-darmon sifatida foydalanib kelinmoqda. Ko'p izlanishlar oqibarida hozirgi vaqtda juda ko'p dorivor o'simliklar aniqlanib ularni tarkibi tekshirilib tabobatda juda ko'p kasalliklarga qarshsi foydalanib kelinmoqdan. Shunday dorivor o'simliklardan biri bu -Na'matak shipovnik-Rosa Namatak- ra'nodoshlar oilasiga mansub. Bo'y 3 m ga yetadigan buta. Bargi toq patsimon murakkab, poyada ketma-ket joylashadi. Guli xushbo'y, rangi har xil, yakka yoki 2–3 tadan o'mashgan. Mevasi shirali, shakli va rangi har xil, gul o'rnidagi soxta meva ichida tukli, bir urug'li yong'oqchalar joylashgan. Mevasi qizil va soxta mevadir. Mevasi kuz faslining oxirida pishadi.



### 1 - rasm Kuz faslida pishib yetilgan dorivor namatak

Dorivor na'matak o'simligi foydali xususiyatlari Na'matakni qadim-qadimlardan beri ajdodlarimiz iste'mol qilib kelishgan. Na'matakning foydali xususiyatlari quyidagicha: na'matak o'zida ko'pgina C guruh vitaminini saqlaydi: qorag'atga nisbatan 10 marotaba, limonga nisbatan 50 marotaba ko'proq, na'matakni hozir ayni kuzda avjiga chiqadigan shamollash va viruslarni oldini olishda ham, ularni



davolashda ham iste'mol qilish kerak, u immunitetni mustahkamlab, organizmni sog'lom qiladi, yurak va qon-tomir tizimiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, qon bosimini normallashtiradi, kamqonlikda ham foydali sanaladi, oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilab, zarali toksinlar va shlaklarni chiqarib tashlaydi, ozishga yordam beradi, o't va siyidik haydovchi vosita sanaladi.

Na'matakni hammaga ham iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. Chunki u o'zida ko'p kislotalarni saqlashi sabab ham, oshqozon gastriti va yarasidan aziyat chekuvchilarga u tavsiya etilmaydi. Na'matakdan tayyorlanilgan damlamalarni qon bosimi tushgan insonlarga ichish tavsiya qilinmaydi. Bundan tashqari na'matakli choyni muntazam va ko'p miqdorda iste'mol qilish infeksiyasiz sariq kasalligiga olib kelishi mumkin. Ozishda na'matakning o'rni Na'matak ozishga yordam beradi, ammo faqatgina unga ishonib, ozib bo'lmaydi. Ozmoqchi bo'lganlar avval shifokor ko'rigidan o'tib, undan so'nggina uni quyidagicha damlab ichish kerak bo'ladi:

3 osh qoshiq na'matak ustidan 1 litr qaynagan suv solinadi va damlab qo'yiladi. Kelasi kuni esa yarim stakandan kuniga 4-5 marta ovqatdan so'ng iste'mol qilinadi.

Na'matakni to'g'ri tanlash va saqlash damlangan choy nordongina ta'mda bo'lib, mazali hamdir. Uning ta'mi sizni quvontirishi uchun ularni to'g'ri tanlash lozim.

Quritilgan na'matak donalari kichkina va bujmaygan bo'lishi kerak. Silliq va katta na'mataklar ularning gaz pechida quritilganidan dalolat beradi, bunda uning ko'pgina foydali xususiyatlari yo'qoladi.

Yangi uzilgan na'mataklar esa bir xil kattalikda, hech qanday dog'larsiz bo'lishi kerak uni shisha bankalarga solib, ustini doka ro'mol bilan yopamiz va salqin va quruq joyda saqlaymiz. Quritilgan na'mataklar 2 yilgacha yaxshi saqlanadi. Na'matakdagi foydali xususiyatlar yo'qolmasligi uchun ularni qaynatish kerak emas, ularni termosga solish kerak. 1 litr suvgaga 4-5 osh qoshiq mevalardan solamiz. Ularni yuvib, maydalaymiz va termosga solamiz. Ustidan qaynagan suvdan quyamiz. Damlangan choy 6 soat turishi kerak. So'ng dokadan o'tkazib, asal yoki shakar qo'shib iste'mol qilinadi.



Pazandachilikda na'matakning o'rni na'matakdan dunyo oshxonalarida keng foydalanishadi. Masalan na'matakdan qishga kampot yopsak bo'ladi. Uni quyidagicha tayyorlaymiz: na'matak mevachalarini yuvib quritamiz, o'rtasidan teng ikkiga bo'lamiz va o'rtsidagi danakchalari va tukchalarini olib tashlaymiz, 300 gramm na'matak va 100 gramm chakandani olamiz, qavatma-qavat qilib bankani yarmigacha mevalardan solamiz, 1 litr suvgaga 500 gramm shakardan aolamiz va qiyom qaynatib olamiz, bankalardagi mevalar ustidan solamiz va yopib qo'yamiz. Na'matak yog'ining foydasi ushbu o'simlikning urug'idan yog'i olinadi. U vitaminlarga boy bo'lib, ular orasida V guruhi vitaminlari, C, Ye, R vitaminlari va betakaroten mavjud. Bundan tashqari, na'matak yog'ida to'yinmagan va to'yingan yog' kislotalari, tokoferollar, karotenoidlar va boshqalar bor. Preparatning foydasi juda katta. Na'matak yog'i tanadagi to'qimalarni tiklashga va organizmda gormonlar ishlab chiqarishga yordam beradi, metabolizmni faollashtiradi, yallig'lanishga qarshi samarali hamda umumiy tiklovchi ta'sirga ega, qon tomirlarining o'tkazuvchanligini pasaytiradi. Organizmda C va R vitaminlari yetishmasligida, stomatit va gingivitda, terining shikastlanishi: yotoq yaralari, kuyishlar, trofik yaralarda, dermatozlarda, safro haydovchi vosita sifatida, yarali kolitda. Kosmetologiyada na'matak yog'ining mashhurligini alohida ta'kidlash kerak. U terining holatiga juda ijobiy ta'sir qiladi: qarish belgilariga qarshi kurashadi, ajinlar va yosh dog'larini yo'qotadi, teri osilishi belgilari paydo bo'lishining oldini oladi. Qon tomirlariga ta'siri tufayli mahsulot teri va soch hujayralarini oziq moddalar bilan to'yintiradi, namlaydi, teri va sochni sog'lomlashtiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) БахромовХ.К., НиязовЛ.Н. Квантово- химический расчетпро из водной салициловой кислоты спиримидином // Universum: химияи биология – 2020. – №. 3-2 (69). – С. 36-38.
- 2) Бахромов Х.К., Ниязов Л.Н., Гапуров У.У. 4-Гидроксибензой кислотанинг баъзи аминокислоталар билан ҳосилалари квант-кимёвий хоссалари // Фан ва технологиялар тараққиёти. – 2020. – № 4. – С. 74-78.



- 3) Bakhramov K.K., Niyazov L.N. Synthesis of 4-hydroxibenzoic acid derivatives with amino acids and their potential pharmacological properties // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences. 2022. – №1-2.-P. 24-27.
- 4) Norov S. K. et al. Electrode characteristics of membranes based on dibenzo-18- crown-6 derivatives //JOURNAL OF ANALYTICAL CHEMISTRY OF THE USSR. – 1988. – T. 43. – №. 6. – C. 777-783.